

FOLKLORSHUNOSLIKNING TADQIQ ETILISHI

Ikromov Azizbek Akmal o'g'li

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish 3-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Keywords: Folklor, Xalq ijodiyoti, Folklorshunoslik, mif, afsona, doston, Etnologiya, Xalq musiqasi, Anotatsiya: Maqolada folklor va uning kelib chiqishi, xalq ijodiyotida tutgan o'rni va folklorshunoslikni tadqiq etilishi, Uning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi o'rganiladi o'rganiladi.

Abstract

Folklor (inglizchadan folk — „xalq“, lore — „bilim“, „donolik“) — xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Thoms olib kirgan. 1880—1990-yillarda „folklor“ termini ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan. O'zbekistonda dastlab, „og'zaki adabiyot“, „og'iz adabiyoti“ atamalari qo'llangan. „Folklor“ termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning „O'zbek folklori“ xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi (qarang Xalq ijodi, Folklorshunoslik).

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Ajdodlarimiz hayoti qandaydir bir udumiy-marosimiy qo'shiqlar va raqslarsiz ma'no — tuzsizdek bo'lgan. Siz, ehtimol, aksariyat ertaklarning an'anaviy xotimasiga e'tibor bergandirsiz: „va ular nikoh to'yini qildilar“. Nikoh to'yi Rusda bir necha kun, ba'zan esa haftalab ham davom etgan. Tomoshalar har xil tabiatli: lirik, kulguli, tantanali, ulug'lovchi, rahsli sahnalardan iborat bo'lgan. Albatta, faqat nikoh to'ylaridagina qo'shiq ko'ylab, o'ynab — kulishmagan. Maishiy qo'shiqchilik ijodiyoti mavjud: alla, hazil, lirik qo'shiqlar: marhumlar boshida aytiladigan yig'i — marsiya qo'shiqlar; uzoq o'tmishdan so'zlovchi bilinlar. Bosh qahramoni — petrushka — hamisha bolalarning sevimli ermagi bo'lgan xalq qo'girchoq teatri qadim-qadimlardan beri ma'lum. She'riyat esa — rivoyatlar, ertaklar, virshilar! Xalq tomonidan yaratilgan butun bu ulkan boylik — musiqa, qo'shiq, she'riyat, teatr, raqs, tasviriy san'at — bitta termin bilan birlashtiriladi: folklor yoxud xalq og'zaki ijodiyoti. So'zning o'zi bizga eski ingliz tilidan kelib qolgan va „xalq zakovati“ sifatida tarjima qilinadi. Butun dunyoda raqs, qo'shiq, so'z tasvir san'atini shu tarzda hurmat-ehtiram bilan tilga oladilar. Bu esa chinakam adolat alomati. Chunki folklorda xalq tajribalari, an'analari, orzu-umidlari, dunyoqarashi gavdalanadi, ya'ni chindan ham uning zakovati va donishmandligi namoyon bo'ladi. Odatdagi san'atdan farqli o'laroq folklorda mualliflik bo'lmaydi. Xalq musiqa merosi — qo'shiqlar, raqs, bilinlar, cholg'u asboblari Nagmalari va chastushkalarni ko'rib chiqaylik-chi. Asar og'zaki an'analarda yashaydi, ko'pincha ko'rinishi o'zgartirilib ma'lum bir ijrochidan boshqasiga yetkaziladi, Shuning uchun folklorshunoslar (xalq ijodiyotini tadqiq etuvchilar shunday ataladi) turli joylarda va har xil ijrochilardan ba'zan bitta va aynan o'sha qo'shiq yoki bilinning bir-biridan farq qiluvchi variantlarini yozib olishadi. Ammo folklor — nafaqat xalq donishmandligi. Bu tag'in xalq ruhi, uning o'z-o'zini anglashining namoyon bo'lishidir. Rus musiqasini o'zbeklar, Neapolliklar, gruzinlarniki bilan yoki spirichuels-zanjilarning diniy munajatlari bilan chalkashtirish mumkin emas.

Folklorshunoslik - xalq ijodi haqidagi fan. Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida

qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urfodat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari Folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar 11 asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. 18-asr va 19-asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, maktablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga aloqida e'tibor berdilar.

19-asr o'rtalaridan boshlab folklori ilmiy prinsiplar asosida to'plash va nashr etishning yanada kuchayishi Folklorshunoslikda yangi yo'nalish — "sayyor syujetlar" nazariyasini yuzaga keltirdi. Bu nazariya tarafdorlari o'xshash syujet, motiv va obrazlardagi murakkab jarayonlarni hisobga olmay, ularni bir xalqdan ikkinchi xalqning shunchaki o'zlashtirishi, deb talqin qildilar.

Antropologik maktab tarafdorlari esa, xalq ijodidagi o'xshash hodisalarni turli millatning umumiyliigi bilan izohlamoqchi bo'ldilar. Ijtimoiy hodisalarni bunday biologik qonunlar asosida tushuntirishga urinish hozirgi zamon Folklorshunoslikda turli tuman oqimlarni (freydizm, neomifologizm vab.) yuzaga keltirdi. Folklori xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganishda tarixiy maktab vakillari katta ishlar qildilar. Folklor asarlari syujetlarining tarixiy geografik tarqalish ularni tasniflash, sistemaga solish va kataloglashtirishda Folklorshunoslik maktabi vakillari ham birmuncha yutuqlarga erishdilar.

Shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro yoki muayyan mintaqaga bo'yicha har xil jamiyatlar ham bor. Masalan: YUNESKO xuzuridagi Etnologiya va folklor xalqaro jamiyati, Xalq musiqasi xalqaro kengashi, Folklor o'rtoqlik jamiyati kabilar shunday ilmiy tashkilotlardir.

O'zbek folklori namunalarini to'plash va nashr etish ishlari 19-asrning 2yarmidan boshlab ahyonahyonda ko'zga tashlanib tursada (H.Vamberi, N.P.Ostroumov to'plamlari, "Hikoyati Go'ro'g'li sulton", "Yusuf bilan Axmad" kabi nashrlar), uni chinakamiga to'plash va nashr etish ishlari 1919-yildan yo'lga qo'yila boshlandi. Yangicha yo'nalishda shakllana boshlagan o'zbek Folklorshunoslikning dastlabki bosqichi (1918—25 yillar) o'sha davr sharqshunosligi va o'lkashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o'zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi. Bunda G'ozzi Olim, G'ulom Zafariy va Elbeklarning faoliyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 20-yillarning 2yarmidan boshlab yana xam jiddiy yutuklar qo'lga kiritildi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir kabi atoqli dostonchilar aniklandi. Ular ijrosida birinchi marta epik asarlar to'la yozib olina boshladi, xalq san'atkorlariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib borildi. Bu ishda o'zbek folklorshunosligi o'zining mustahkam ilmiy yo'nalishiga ega bo'ldi, uning asosi yaratildi.

30-yillarda Folklorshunoslik ga B.Karimov, Sh.Rajabov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova kabi folklorshunoslar kelib qo'shildilar. Folklori to'plash va o'rganishga, bir qancha epik asarlar hamda xalq ijodi namunalarini nashr etishga alohida e'tibor berildi, folklor bo'yicha Xalq musiqasi xrestomatiya va o'quv qo'llanmalari tuzildi. Bu davrda xalq teatri, raqsi va tomosha san'ati (sirki)ni o'rganish boshlandi. G'.Zafariy, A.Qodiriy, M.Gavrilov, A.Borovkov, A.Troitskaya va boshqa bu soxada samarali ijod qildilar. Musiqa xalq san'atini o'rganishda esa V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, N.Mironov, Ilyos Akbarov, Yunus Rajabiy va boshqalarning hissalariga katta.

Ikkinchi jahon urushi yillarida jangchilarni vatanparvarlik va qaxramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi folklor asarlariga katta ahamiyat berilganligi bu davr Folklorshunoslikning muhim xususiyatidir. V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobi yaratildi va Moskvada nashr etildi (1947, mufassal bayoni 1958-yilda Germaniyada nemis tilida ham bosilib chiqdi).

60-yillarning oxirlaridan boshlab, xususan, mustaqillik yillarida folkloristik ishlarning miqyoslari yanada kengaydi, ekspeditsiyalar uyushtirish doimiy ravishda yo'lga qo'yildi, nisbatan yirik, miqyosida keng, fundamental ishlarni yaratishga intilish kuchaydi. Folklorning turli janrlariga bag'ishlangan monografiyalarning yaratilishi, "O'zbek folklori ocherklari", "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar" nomida turkum to'plamlarning yuzaga kelishi, "Uzbek xalq ijodi", "Bulbul taronalari", "Alpomish" dostonining akademik nashri kabi ulkan nashrlarning amalga oshirilishi bunga yorqin misoldir. Bu ishlarni amalga oshirishda H.Razzoqov, T.G'oziboyev, O.Sobirov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, M.Murodov, A.Qahhorov, X.Egamov, T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jalolov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Ro'zimboyev, M.Jo'rayev, A.Musaqulov kabi folklorshunoslarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi. San'atshunos olimlar F.Karomatov, M.Qodirov, R.Abdullayevlar O'zbekistonda musiqa va teatr Folklorshunoslikning rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda Har bir qo'shiq-xalqning hayoti, uning tarixi va turmushining ifodasi. Mashhur iborani jinday o'zgartirib shunday deyish mumkin: meni o'sha xalqning folklori bilan tanishtiring, va men, sizga uning qanday xalq ekanligini aytib boraman. Va nihoyat, butun jahon madaniyatining ildizlari xalq ijodiyotiga borib taqaladi. U zamonaviy adabiyot, musiqa, rassomchilikni oziqlantiradi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Zero, inson xalqdan tashqarida, jamiyatdan tashqarida, ildizlardan tashqarida mavjud bo'la olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ad..Azadovskiy M.K., Istoriya russkoy folkloristiki, t. 1—2, M., 1958—1963;
2. Muzikalnaya folkloristika v Uzbekistane, T., 1963; Zemlya nova L.M.,
3. Sovremennaya amerikanskaya folkloristika, M., 1975; Hodi Zarif, O'zbek
4. folkloristikasi tarixidan //O'zbek folklori masalalari, T., 1970; Mirzayev T., Hodi Zarif, T., 1967; Qodirova M., Muzayyana Alaviya, T., 1968.